

## USMON AZIM SHE'RIYATIDAGI BA'ZI RAMZLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Urinboyeva Surayyo Qo'ziboy qizi

Urganch davlat universiteti magistranti

### Annotatsiya

Ushbu maqolada iste'dodli shoir Usmon Azim she'riyatidagi o'ziga xos xususiyatlar, so'z qo'llash mahorati, lirik qahramon ruhiyati ko'rsatib beriladi.

### Tayanch so'zlar

Poetik ifoda, lirik kechinma, obrazlilik, tafsil, ramziylik, poetik obraz.

O'zbek xalqiga asrlar davomida sayqallanib, ulkan badiiy qadr-qimmatga ega sermazmun va rang-barang adabiy meros qolgan. Vaqt o'tgan sari adabiyotimizda ro'y berayotgan yangilanishlar tufayli uni tushunish, anglash birmuncha murakkablashadi. Shu bois insonning ruhiy olamiga, ta'bir joiz bo'lsa, badiiy adabiyot orqali kirib borish lozim. Xalqimizning adabiy dunyoqarashini, ongi va tafakkurini, badiiy madaniyatini shakllantirishda o'z ta'sirini yuqori darajada ko'rsatayotgan serqirra ijodkor – Usmon Azimdir. Usmon Azim she'riyati qadim turkiy adabiyotning eng ilg'or an'alarini mujassam etgan. Yillar charxpalagidan o'z kuchi va jozibasini yo'qotmasdan kelayotgan Usmon Azim she'rlari baxshiyonaligi, muhabbatga oshnoligi va hissiyligi orqali kitobxonlar qo'lida.

Zanjirlarni uzdim,

G'ullarni buzdim.

Oxir zindonni ham ayladim vayron.

Erkin havo bilan hur bazm tuzdim

O'ynadim bearmon,

Kuldim bearmon.

Erk uchun kurash shoir she'riyati asosini tashkil qiladi. She'rda tasvir etilgan “zanjir”, “g'ul” – mustabid tuzumning xalqimiz boshiga solgan yovuz iskanjasidir. Usmon Azimning she'riyat olamiga ilk qadamlari o'tgan asrning 70-80-yillariga to'g'ri keladi. O'sha davrdagi mafkuraviy tuzum, badiiy adabiyotga “kishanlar” taqilgan bir paytda Usmon Azim o'zining Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Rauf Parfi kabi safdoshlari bilan yelkama-yelka turib zindondagi adabiyotni ozodlikka chiqaradilar. Xalqchil shoir butun vujudiga qadim bobolarining ruhini singdirgan holda yangilanayotgan zamonda izlanadi, yangidan yangi shakllar topadi. Usmon Azim she'riyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, shoir butun insoniyatning quvonch-u tashvishlarini, ichki kechinmalarini, dard-u hasratlarini, hamma-hammasini ruhiyatga singdirib, so'zlarni ohangrabodek tizib chiqadi. Chindan ham baxtsizlikni his qilmagan odam baxtni, mehnat mashaqqatini bilmagan odam farog'atni, azobni bilmagan odam shodlikni his qila olmaydi. Shubhasiz, odamlar davrga, o'z navbatida, davr



odamlarga ta'sir o'tkazadi. Usmon Azim esa o'zi yashayotgan davr ruhi va kayfiyatini bir nuqtaga to'plab, betakror she'rlar yaratadi.

Bir qarashda Usmon Azim she'rlari an'anaviy uslubda yozilgandek ko'rinadi. Bu uslub, asosan, to'qqiz, o'n bir baytli she'rlarida namoyon bo'ladi. Usmon Azim an'anaviy she'riyatni yangi zamonaviy bosqichga olib chiqdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Dunyoga boryapman sog'inchga to'lib,  
Masalan, tirilib, masalan, so'nib –  
Sog'inch taslim etgan, sog'inch zabt etgan,  
Umr “borsa kelmas” yo'llarga ketgan.

Borgan sari shoirning ohang va shakl borasidagi izlanishlarida xilma-xillik paydo bo'la boshladi. Zamon zaylidan kelib chiqib Usmon Azim go'yoki she'riyatni kurash qiroli qilib mavjud tuzumdagi ijtimoiy holatga qarshi chiqadi. Usmon Azim go'yoki dunyoga, balki dunyodoshlariga achchiq qilib she'r yozadi. Ularni mukammal ko'rishni xohlaydi. Marjon kabi terilgan misralarda baxt yonida baxtsizlik, quvonch yonida qayg'u, bitmas-tuganmas sevgi iztiroblarini sun'iylik libosidan xoli tasvirlaydi. Tabiiyki, shoir kayfiyati she'rxonga ko'chadi. Usmon Azim she'rni allaqanday talvasa bilan yozadi. Vujudini, ruhini qamrab olgan tushkunlikni oddiygina poetik ifoda tarzida ifodalamaydi, balki zamondoshlarining fojeaviy hayotini chuqur his qilgan holda badiiy tasvirlaydi.

Menga bir tosh kerak – osmon kabi keng  
G'azab kabi og'ir, g'amday benavo.  
Menga bir tosh topib berolmading sen,  
Toshlari tuproqqa aylangan dunyo.

Yuqoridagi misralarda shoir iztiroblarini to'kib solish uchun shakl izlaydi. Usmon Azim “Shoirilar armondan tug'iladilar” deb bejiz yozmagan. Erksizlikdan azoblangan Usmon Azim misralariga shoirona dard singdiradi. Ushbu she'rda shoir “tosh” tafsilidan “yomonlikni yo'qotish” uchun foydalanadi. Ayni paytda “tosh” – Usmon Azim butun umri davomida kurashgan rostlikni inkor etuvchi, insonga azob beruvchi yovuz kuch hamdir. Ushbu ramz orqali shoir insoniyatning “tosh” kabi qotgan yuraklarida iliq tuyg'ularni qayta tiriltirishni xohlaydi.

Shoir she'rga o'xshab yashashga intiladi. Usmon Azim “quyosh”, “yaproq”, “yomg'ir”, “oy”, “nur”, “tog'”, kabi so'zlarni obrazga aylantiradi. Hattoki, “so'z” kalimasini ham mukammal poetik obraz darajasiga ko'taradi:

So'z kimga kerakdir? Lab ochmagin! Jim.  
Taqdir so'zga loyiq qoldirmadi sir.  
Men ham yomg'ir kabi bir yonib o'tdim,



Sen ham yomg'ir kabi yig'lab o'tting bir.

She'riyat ahlining yagona yupanchi – so'z. Ular so'z bilan yashaydi, so'z bilan nafas olishadi, so'z bilan kulib, so'z bilan yig'lashadi. Usmon Azim esa so'zni mukammal poetik obraz darajasiga ko'taradi. U so'zlarni *o'g'ir so'z, to'kilgan so'z, begona so'z, qaltis so'z, yolg'iz so'z, buyuk so'z, yoniq so'z* deya sifatlaydi. Lirik qahramonini goh muhabbat olovida yondirib alamli so'zlar tizadi, goh o'zi yondirgan yurakka so'zlar bilan malham qo'yadi. U so'zlarni ba'zan isyonkor kuch sifatida tasvirlasa, ba'zan sokin iztiroblar silsilasida keltiradi. Go'yoki so'z borgan sari uning yuragiga aylanadi. Ammo topgan so'zidan qanoatlanmaydi. She'rlarining asosiy mavzusi bo'lgan muhabbat ne'mati qoshida o'z so'zlarini o'z sanaydi, lekin qayta-qayta so'zga murojaat qiladi.

Usmon Azim yashash uchun, shon uchun, rizq-u ro'z uchun, yuragida otash bilan sevgi uchun, eng muhimi “chin so'z” uchun kurashadi.

Shoir lirik qahramonining tashqi qiyofasi, ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini o'ziga xos tarzda xalqchil tasvirlaydi. Usmon Azim she'riyatining o'ziga xos xususiyati o'z-o'zini betinim tergaydigan, qalbini taftish qilishga intiladigan “men” ning ruhiy olami manzaralarini tasvirlaydi. U o'zini lirik qahramon taqdiri uchun mas'ul qilib qo'yadi.

Usmon Azim dunyosining, umrining totli azobini ko'ngil evrilishlari bilan bog'lab go'zal she'rlar yaratib kelmoqda. Shoirning so'z qo'llash borasidagi o'ziga xosligi, ramziylik va jozibadorlik yuksak e'tirofga sazovor. Iste'dodli shoir Usmon Azim hassos she'rlari bilan shoir sifatidagi salohiyatini yuqori darajada namoyon qila olgan buyuk ijodkordir.

WORDLY  
KNOWLEDGE